



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO  
BAHOLASH ILMIY-AMALIY  
**MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH  
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**2023**  
**2024**

# O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN

# O'ZBEK TILI

# FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



## O‘zbek tili 11-sinf

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinflarida o‘zbek tili fanidan yakuniy imtihon ushbu tavsiya etilgan bilet savollari asosida o‘tkaziladi. Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur’a tashlash yo‘li bilan 2 ta variant tuzilib, e‘lon qilinadi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinf o‘quvchilariga imtihonda berilgan topshiriqlar bo‘yicha 150 daqiqa vaqt beriladi.

11-sinflar uchun Yakuniy davlat attestatsiyasi materiallari tayyorlanish jarayonida o‘zbek tili fanidan 10-11-sinflarda o‘tilgan mavzular asos qilib olindi. Tuzilgan 10 ta variantning har biri 3 ta savoldan iborat. Savollarning 1tasi o‘qish savodxonligi, 1tasi mulohaza qilish, 1tasi qo‘llashga oid.

Har bir variantda darslik va boshqa manbalardan olingan nutqiy mavzuga oid matnlar berilgan.

**1-savol:** o‘quvchi berilgan matnni o‘qishi, matn asosida berilgan savollarga javob bera olishi, matn asosida olingan xulosalarni hayotiy misollar bilan izohlashi; (o‘qish savodxonligiga oid – 30 ball)

**2-savol:** matn asosida tuzilgan savollarga javob berish; (mulohazaga oid – 40 ball)

**3-savol:** ajratilgan gap yoki so‘zlarni ona tiliga tarjima qilishi; so‘zlarning leksik xususiyatlarini (bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, omonim, sinonim, antonim, paronim, iboralar, tasviriy ifoda) ajrata olishi; (qo‘llashga oid – 30 ball)

O‘quvchilarning yozma javoblari 100ballik tizim asosida baholanadi:

0-29% - “qoniqarsiz”

30-70% - “qoniqarli”

71-85% - “yaxshi”

86-100% - “a’lo”

**11-sinf bitiruvchilariga o‘zbek tili fanidan Yakuniy davlat attestatsiyasi uchun  
tuzilgan savol-topshiriqlar**

**BAHOLASH MEZONI**

<b>Savol raqa mi</b>	<b>Savol dara jasi</b>	<b>Jami ball</b>	<b>ball</b>	<b>Daraja tavsiflovchisi</b>
1	O‘qish savodxonligi	30	23-30	Berilgan topshiriqqa kreativ yondashib, chuqr mulohaza yuritib, fikrlarini o‘zbek tilida erkin bayon eta olsa, bugungi kun bilan bog‘lab misollar keltirib bera olsa;
			15-22	Topshiriqda berilgan mavzu asosida fikr bildira olsa, bugungi kun bilan bog‘lab misollar keltirib bera olsa;
			8-14	Berilgan topshiriqqa minimal darajada yondashib, o‘z fikrlarini o‘zbek tilida ifodalay olishga qiynalsa, qisman misollar keltirib bera olsa;
			1-7	Berilgan mavzu asosida fikrlarini bayon qilishda qiynalsa, qisman javob bera olsa;
2	Mulohaza	40	40	Matn asosida tuzilgan moslikni topishga oid test savollarining ikkitasiga to‘liq va to‘g‘ri javob bersa
			20	Matn asosida tuzilgan moslikni topishga oid test savollarining bittasiga to‘liq va to‘g‘ri javob bersa
			10	Matn asosida tuzilgan moslikni topishga oid test savollarining bittasiga qisman to‘g‘ri javob bersa
3	Qo’llash	30	23-30	Ajratib ko‘rsatilgan til birliklarining leksik xususiyatlari(shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli, paronim yoki o‘z va ko‘chma ma’nosini)ni yuqori darajada o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, izohlab bersa, ona tiliga tarjima qilib bersa;
			15-22	Ajratib ko‘rsatilgan til birliklarining leksik xususiyatlari(shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli, paronim yoki o‘z va ko‘chma ma’nosini)ni qisman izohlab bera olsa, ona tiliga tarjima qilsa;
			8-14	Ajratib ko‘rsatilgan til birliklarining leksik xususiyatlari(shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli, paronim yoki o‘z va ko‘chma ma’nosini)ni qisman izohlab berishga, ona tiliga tarjima qilishga qiynalsa;
			1-7	Ajratib ko‘rsatilgan til birliklarini ona tiliga tarjima qilishda qiynalsa, ularning ma’nosini qisman izohlasa;

## I VARIANT

Bobur ismi “**sher**” ma’nosini anglatib, uning o‘zi ham ismi jismiga monand kishi bo‘lgan, kelishgan qaddi-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchillikda, chaqqonlikda oldiga tushadigan topilmagan, uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan. U ko‘pincha ikki qo‘liga og‘ir yukni ko‘tarib, Agra **qal’asi** devorlari ustida yugurib mashq qilgan. U yana ajoyib suzuvchi va g‘avvos ham bo‘lgan. Ganga daryosidan tashqari jamiki yo‘lida uchragan hind daryolarini suzib o‘tgan. Uning shirali til, ohangdor vazn bilan bitilgan tarjimayi **holi** – “Boburnoma”ni o‘qir ekansiz, muallif badiiy didining naqadar go‘zalligi, aql-u zakovati teranligi, bilimi naqadar cheksizligining guvohi bo‘lasiz. Bobur tabiatni va bazmlarni jonidan yaxshi ko‘rgan. Ayniqsa, tog‘larni, daryolarni, bog‘larni, yaylovlarni ko‘rganda, o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbat va sog‘inch ilhomni jo‘sh urgan.

### TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matnga sarlavha qo‘ying. “Boburnoma” qanday asar? Siz ham o‘z tarjimayi holingizni yozib bering. (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmunida aks etmagan ma’lumotni toping. (20 ball)
  - a) Bobur yuksak badiiy did sohibi bo‘lgan
  - b) Bobur doimo Vatan sog‘inchi bilan yashagan
  - c) Bobur qiyinchiliklar oldida hech qachon bo‘yin egmagan
  - d) Bobur Hindistonni to‘liq bosib olgan
- 2.2 Berilgan gaplarni moslashtiring (20 ball)

1	Agra qal’asi devorlari ustida yugurgan, chunki	a)	memuar asar
2	Ko‘pgina hind daryolaridan qiyalmasdan o‘tgan, chunki	b)	kuchli, epchil va dovyurak bo‘lgan
3	“Boburnoma”da hayoti haqida hikoya qilingan, shuning uchun	c)	mohir suzuvchi va g‘avvos bo‘lgan

- a) 1-a, 2-b, 3-c    b) 1-b, 2-c, 3-a    c) 1-c, 2-b, 3-a    d) 1-b, 2-a, 3-c
3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:
    - 3.1 Qahramonga xos bo‘lgan fazilatlarni anglatuvchi so‘zlarni ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)
    - 3.2 Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning paronimlarini aniqlang va ularning ma’nosidagi farqlarni izohlang. (sher, qal’a, hol) (15 ball)

## II VARIANT

“Ko‘ngil” she’ri

**Ko‘ngil**, sen munchalar nega  
Kishanlar birla do‘stlashding?  
Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen muncha sustlashding?  
Haqorat dilni og‘ritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi?  
Qilichlar endi sinmasmi?  
**Tiriksan**, o‘lmagansan,  
Sen-da olam, sen-da **inson**san.  
Kishan kiyma, bo‘yin egma,  
Ki, sen ham **hur** tug‘ilg‘onsan!

### TOPSHIRIQLAR:

1. She’rda ilgari surilgan asosiy g‘oya nimadan iborat? She’r g‘oyasini davr bilan bog‘lang. She’rning muallifi kim? U haqida nimalarni bilasiz? (30 ball)
2. 2.1 Shoir she’rda nimaga murojaat qilgan? (20 ball)
  - a) insonga
  - b) ko‘ngilga
  - c) hayotga
  - d) ozodlikka
  - 2.2 She’r mazmuniga mos kelmagan javobni aniqlang (20 ball)
    - a) shoir she’rda dil dardlarini bayon etadi
    - b) shoir ko‘ngilni hamisha ozod va hur bo‘lishga chorlaydi
    - c) shoir she’rda ko‘ngilning doimo tirikligini aytadi
    - d) shoir she’rda doimo bo‘yin egib yashashga undaydi
3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:
  - 3.1 *Qilich, kishan, tubanlik, faryod* so‘zlarini ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)
  - 3.2 Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing (ko‘ngil, tirik, inson, hur) (15 ball)

### III VARIANT

#### Kino san'ati

Kino san'ati 1895-yil Parijda (ixtirochilar aka-uka Lyumyerlar) yuzaga kelgan. Kino san'ati asarlari yozuvchi-dramaturg, rejissyor, aktyor, operator, rassom, pardozchi, bastakor kabi ijodiy xodimlardan iborat jamoa mahsulidir. Kinoda rejissyor yetakchi rol **o'ynaydi**. Film yaratish 2 tomonni - ijod va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Kino ishlab chiqarishning markazi – kinostudiya. Tayyor filmlar kinoprokat orqali tarqatiladi va ular kinoteatr, televideniyeda ko'rsatiladi. Ekran san'atining o'ziga xos ifoda vositalari bor: umumiyligi, o'rta va yirik planda suratga olish, turli rakurslarda kameralar harakati, epizod, kadrlar montajining turli shakllari va boshqalar. Kino san'atining 4 asosiy turi mavjud: badiiy, ilmiy-ommabop, hujjatli va multiplikatsion filmlar.

#### TOPSHIRIQLAR:

1. San'at nima? San'atning yana qanday turlarini bilasiz? Ularning o'ziga xos jihatlarini yozing. Kino san'ati qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega? Qaysi mashhur o'zbek rejissyorlari va filmlarini bilasiz? (30 ball)
2. 2.1 Moslashtiring (20 ball)

1	rejissyor	a)	eskizlar asosida badiiy obraz yaratadi.
2	aktyor	b)	boshqaruvchi, asarni tanlaydi, aktyorlarga rollarni bo'lib beradi.
3	rassom	c)	Ijrochi qiyofasini rolga moslab (maxsus bo'yoq bilan bo'yab, sun'iy soch-soqol yopishtirib, sochni rolga moslab tarab) o'zgartiradi.
4	pardozchi	d)	badiiy obraz yaratadi, o'z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe'l-atvorini, ichki dunyosi va intilishlarini ifodalaydi.

a) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c

c) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

b) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

d) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c

2.2 Matnda mazmuniga mos kelmaydigan noto'g'ri ma'lumotni toping. (20 ball)

a) Kinostudiyada kino ishlab chiqariladi

b) Ijod va ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan mahsul bu – kino

c) Kino san'ati Germaniya poytaxtida vujudga kelgan

d) Kino san'ati 4 asosiy turga ega.

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

3.1 Matndagi oxirgi gapni ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)

3.2 Ajratilgan so‘zda qanday fonetik o‘zgarish ro‘y bergan? (o‘ynamoq) (15 ball)

## IV VARIANT

Barchamizga ma’lumki, xususiy ta’lim muassasalari soni kundan kunga ortib bormoqda. Davlat va xususiy OTMlar bir-biri bilan raqobatchi. Jumladan, o’tgan yil xususiy OTMlarga hujjat topshirgan abiturientlarning soni oldingi yillarga nisbatan birmuncha oshgan. Bunga asosiy sabablardan biri: kirish imtihonlarining nisbatan osonligi (ayrim xususiy OTMlarida esa imtihon ham olinmaydi) bilan izohlanadi. Davlat universitetlarida kirish uchun anchagina mehnat qilishga to‘g‘ri keladi.

Davlat ta’lim muassasalari o‘z tarixiy an’analariga sodiqlik, salohiyatl professor o‘qituvchilarning darslarni olib borishi, zamonaviy o‘quv bino va jihozlari hamda qulay shart-sharoitga ega bo‘lgani bilan qaysidir ma’noda ishlayotgandek ko‘rinsa-da, ulardan farqli o‘laroq bu ishga yaxshigina sarmoyasini va vaqtini ayamayotgan xususiy sektor bugungi kun yoshlarini qiziqtiradigan taklif berayotgandek, nazarimizda. Xususiy OTMlaridagi talabalarga berilayotgan fikr va jism erkinligi, tahsil bilan amaliyotning birqaligi tanlovda alohida ustunlik kasb etmoqda.

“Besh qo‘l barobar bo‘lmas”, - deganlaridek, har ikki ta’lim muassasalarining ham kamchiliklari yo‘q emas. Xususan, davlat ta’lim tashkilotlarida talabalar qiziqishi hisobga olinmaydi, o‘z sohasi uchun keraksiz fanlar ham o‘tilaveradi. Natijada esa o‘z sohasini yaxshi bilmaydigan kadrlar yetishib chiqadi. Shuningdek, xususiy ta’limda ham barchasi obod emas, ayrimlari hali o‘quv binosiga ega bo‘lмаган, o‘qituvchilar yetishmasa ham faoliyatini boshlab, talabalarning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirish bilan band.

### TOPSHIRIQLAR:

1. Matnga sarlavha qo‘ying. Davlat va xususiy OTMlarning afzal tomonlarini hamda kamchiliklarini izohlang. Siz qaysi birini tanlamoqchisiz, nima uchun? (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmuniga mos keladigan fikrlarni belgilang (20 ball)

		To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
--	--	---------	-----------

1	Xususiy sektor davlat OTMlariga sarmoya kiritadi		
2	Xususiy ta’lim muassasalarining barchasi yangi zamonaviy binoga ega		
3	Besh qo‘l barobar ekan		
4	Xususiy OTMlarga imtihonsiz qabul qilinadi		
5	Davlat OTMlariga hujjat topshiruvchilar soni oldingi yillar ko‘p bo‘lgan		

- a) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4-to‘g‘ri, 5-noto‘g‘ri
- b) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri, 5- noto‘g‘ri
- c) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4- noto‘g‘ri, 5- to‘g‘ri
- d) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4- to‘g‘ri, 5- noto‘g‘ri

2.2 Matn mazmuniga mos kelmaydigan fikrni toping? (20 ball)

- a) Davlat OTMlari zamonaviy bino va jihozlarga egaligi bilan ajralib turadi
- b) Davlat OTMlariga o‘qishga kirish nisbatan osonroq
- c) Har ikki ta’lim muassasalarining kamchiliklari bisyor
- d) Davlat va xususiy OTMlari bir-biriga raqobatchi

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

- 3.1 *Xususiy, ta’lim, zamonaviy, faoliyat, kamchilik, sarmoya so‘zlarini ona tilingizga tarjima qiling* (15 ball)
- 3.2 Ajratib ko‘rsatilgan “**qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq**”, “**besh qo‘l barobar bo‘lmas**” iboralarining ma’nosini izohlang (15 ball)

## V VARIANT

Telefon bizni muammolardan qutqara oladimi yoki kitob?

Dunyo jadallik bilan rivojlanish yo‘lida bo‘lgan ayni bir paytda kitobga e’tibor kamayib, telefonga bo‘lgan mehrimiz kuchaydi. Aloqa vositasining yaratilishi yaxshi, albatta. Chunki telefon orqali biz butun dunyo yangiliklaridan voqif bo‘lamiz. Kerakli ma’lumotlarni kunlar davomida izlamay bir soniya ichida topa olamiz. Bu maqtashga arzigelik jarayon. Har bir vositaning foydali va zararli jihatlari bo‘lgani kabi telefonga mehr qo‘yish inson salomatligi uchun xavflidir.

Bizga beminnat tuhfa etilgan mehr-oqibatdan yiroqlashamiz, **ko‘z** nurimizdan ayrilamiz. Zero, sog‘lik - boylik.

Kitob - qalbimizni yoritguvchi quyosh. Kitob o‘qish orqali ma’naviy tafakkurimiz oshadi. Kitob baxt qasri sari yetaklaydi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Kitob - mo’jizalar olami. Kitob o‘qigan bola telefon o‘ynagan bolani kelajakda boshqaradi”.

Xulosa qilib aytganda, me’yorida bajarilgan amallar biz uchun yaxshilik ummoni sanaladi. **Telefonni me’yorida xolis niyat uchun ishlatsak, foydali ma’lumotlarni o‘rganamiz.** Kitob o‘qisak, bu ham maqsadimiz sari yo‘l ochadi. **Har ikkalasidan ham unumli foydalanib yurt kelajagi uchun xizmat qilishga bel bog‘lasak, ko‘zlagan marralarni egallaymiz.**

### TOPSHIRIQLAR:

1. Matnning mohiyatini ochib beruvchi 5 ta savol tuzing (30 ball)
2. 2.1 Matn asosida berilgan hukmlardan qaysi biri to‘g‘ri (20 ball)
  - a) Telefon dan kerakli ma’lumotni uzoq qidiramiz
  - b) Maqsadimizga yo‘l ochuvchi asosiy vosita bu - telefon
  - c) Kitob ma’naviy tafakkurimizni oshiradi
  - d) Telefon inson salomatligi uchun mutlaqo xavfsiz
- 2.2 “*bel bog‘lamoq*” iborasining ma’nosini to‘g‘ri izohlangan javobni aniqlang (20 ball)
  - a) tajribasi kam
  - b) har kim xato qilishi mumkin
  - c) yoshlikdagi odat
  - d) bir ishni qilishga kirishish
3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring
  - 3.1 Ajratib ko‘rsatilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)
  - 3.2 Ajratib ko‘rsatilgan so‘z (ko‘z) ko‘p ma’noli so‘zmi? Ma’nolarini izohlang. (15 ball)

### VI VARIANT

Psixologiyada ranglarning o‘ziga xos xususiyatlari inson ruhiyati, xarakteri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. **Ranglarning odam xulq-atvoriga, ruhiy yoki fiziologik holatiga qanday ta’sir qilishi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib**

**borilgan.** Ayniqsa, marketing va dizayn sohalarida rang bilan ishlash juda muhimdir. Sababi kompaniyalar xarid darajasini oshirish uchun mijozlarni jalg qiladigan ranglardan foydalanish lozim deb hisoblaydilar. Masalan, qizil rang ishtahani ochadi degan qarash mavjud. Shu bois “McDonald’s”, “Pizza Hut”, “KFC”, “Loook” va “Wendy” kabi taniqli fastfud tarmoqlari ushbu rangni o‘zlarining logotiplari va binolarida ishlatishadi. Yoki moviy rangni olaylik: bu rang osmon va suv rangidir, u osoyishtalik, aql-idrokni anglatadi. Marketing dunyosida u “Facebook”, “Twitter”, “Telegram” kabi ko‘pgina logotiplarda qo‘llanadi. Bu nafis va korporativ rang kompaniyalar tomonidan ko‘p ishlatilishi sababi ishonch va **poklik** belgisi ekanidadir. Bulardan tashqari, siyohrang ham marketing dunyosida juda mashhur, chunki u nafislikni anglatadi va juda jozibali rang deb ta’riflanadi. Qora rangda esa salbiy ma’noga egalik xususiyati bo‘lsa-da, moda olamida tengsizdir. Chunki bu rang rasmiyatçilik, tetiklik, nafislik rangi sanaladi. Aynan qora rangga qarama-qarshi rang deb sanaluvchi oq rang soflik va beg‘uborlik ramzidir. Yoga bilan shug‘ullanuvchi insonlar oq rangga bo‘yalgan xona, oq rangli kiyimlar, oq atirgullar bilan bezatilgan uylarda shug‘ullanish tanani yanada tozalaydi va insonga tasalli beradi deb ishonishar ekan.

### **TOPSHIRIQLAR:**

1. Matnga sarlavha qo‘ying. Matnda sanab o‘tilgan ranglar inson psixologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishining sabablarini izohlang. (30 ball)
2. 2.1 Matn mazmuniga xos bo‘limgan fikrni toping (20 ball)
  - a) Moviy rang ishonch va poklik belgisidir
  - b) Fastfud tarmoqlari logotiplarida ko‘pincha moviy rangdan foydalanishadi
  - c) Rasmiy marosimlarga asosan qora rangli kiyimlar kiyiladi
  - d) Maxsus mashq bilan shug‘ullanuvchilar oq rangni afzal ko‘rishadi  
2.2 Matn mazmuniga mos keluvchi to‘g‘ri fikr berilgan javobni aniqlang (20 ball)
  - a) Moviy rang osoyishtalik, aql-idrokni bildiradi
  - b) Qizil rang marketing dunyosida taniqli hisoblanadi
  - c) Ranglar inson ruhiyatiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmasligi isbotlangan
  - d) Mashhur kompaniyalar mijozlarni jalg qilish uchun ranglar ahamiyatsiz deb hisoblaydilar
3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring
  - 3.1 Ajratilgan gapni ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)
  - 3.2 Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning (*poklik*) ma’nodoshlarini yozing. (15 ball)

## VII VARIANT

### Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 783-850-yillarda yashagan **buyuk** matematik, astronom, geograf va ilm-fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardandir. Jamiyatning oddiy unsurlariga aylanib qolgan sonlarni o‘nlik sanoq sistemasida yozish va ular ustida arifmetik amallarni bajarish qoidalari Xorazmiyning “Arifmetika” asari orqali joriy qilingan. Shuning uchun Xorazmiyni insoniyatga arifmetikani o‘rgatgan ustoz deb hisoblash mumkin. U algebra faniga asos soldi: bu atama uning “Al-jabr val-muqobala” asari nomidan olingan. “Algoritm” deb nom olgan aniq va tushunarli qoidalarni ishlab chiqdi hamda yo‘lga qo‘ydi. Lotin tilida “algoritm” tushunchasi – *algorithmi*, ya’ni al-Xorazmiy nomidan olingan. Algoritm zamonaviy raqamli axborot va kompyuter texnologiyalarining asosini tashkil qiladi. bundan tashqari olimning astronomiya va geografiyaga oid asarlari ham mavjud. Bundan 12 asr oldin yozilgan uning bebafo asarlaridan hozirgi kunga qadar butun dunyo ta’lim sohasida foydalilaniladi.

#### TOPSHIRIQLAR:

1. Xorazmiyning qomusiy olim deya e’tirof etilishining sabablarini izohlang. Xorazmiy kabi fanga yangilik olib kirgan olimlardan yana kimlarni bilasiz? (30 ball)
2. 2.1 Xorazmiy haqidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘rilarini aniqlang (20 ball)

	Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.	Insoniyatga arifmetikani o‘rgatgan ustoz		
2.	Sharqda Ikkinci muallim nomini olgan ustoz		
3.	Algebra fanining asoschisi		

- a) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
- b) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
- c) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
- d) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri

2.2 Matn mazmunida aks etmagan ma’lumotni toping (20 ball)

- a) Xorazmiyning “Hind arifmetikasi haqida kitob” asari fors tilida yozilgan
- b) Xorazmiy 67 yil yashagan
- c) Xorazmiy arifmetik amallarni bajarish qoidalalarini joriy qilgan
- d) “algoritm” tushunchasi al-Xorazmiy nomi bilan bog‘liq

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

3.1 Birinchi gapni ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)

3.2 Ajratilgan so‘zning (*buyuk*) ma’nodoshlarini yozing va ularning o‘ziga xos tomonlarini izohlang. (15 ball)

### VIII VARIANT

Fan olamida shunday olimlar ijod qilib o‘tganki, ular yaratgan ilmiy g‘oya va kashfiyotlar yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Ana shunday tengi yo‘q iqtidor sohiblaridan biri Albert Eynshteyndir. Uning nomi zamonaviy fizika sohasida ochilgan **ko‘plab** qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘langan.

Albert Eynshteyn 1879-yilning 14-mart kuni Germaniyaning Ulma shahrida tug‘ildi. Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday qiziqdiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig‘ini chulg‘ab oldi. 1896-yilda Syurix texnologiya institutiga o‘qishga kirdi. U shunday qobiliyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsasini hech o‘zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi.

Institutni bitirgandan so‘ng ketma-ket ilmiy g‘oyalari bayon etilgan maqolalarini nashr qildira boshladi. E’lon qilgan har bir maqolasini fizika fanida katta kashfiyot bo‘ldi. 1905-yili “Maxsus nisbiylik nazariyası” deb nomlangan asari orqali fanga nisbiylik nazariyasini olib kirdi.

XX asrning buyuk olimi, Nobel mukofoti sovrindori darajasiga ko‘tarilgan Albert Eynshteyn 1955-yilning 18-aprelida vafot etdi.

### TOPSHIRIQLAR:

- Eynshteyn qanday qobiliyatlarga ega bo‘lgan? Matnda keltirilgan “tabiiy fanlar” toifasiga kiruvchi fanlar qaysilar, ular mакtabda ham o‘tiladimi? Tabiiy fanlarni maktabda o‘qitish kerakmi yoki yo‘q, nima uchun? (30 ball)
- 2.1 Eynshteyn haqidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘rilarini aniqlang (20 ball)

	Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.	Dunyo xaritasini chizgan geograf		
2.	Syurix texnologiya instituti talabasi bo‘lgan		
3.	Nobel mukofoti sovrindori		
a)	1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri		
b)	1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri		

- c) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri  
d) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri

2.2 Matnda berilgan so‘zlarning ma’nolarini moslashtiring (20 ball)

1	qobiliyat	a)	insonlarning o‘ziga yoqqan narsani bilishga, o‘rganishga bo‘lgan intilish, havas	
2	qiziqish	b)	izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba’zan esa tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik	
3	kashfiyot	c)	harakat, qiziqish, iqtidorini amalda ko‘rsata olish	
	a) 1-c, 2-a, 3-b	b) 1-a, 2-c, 3-b	c) 1-b, 2-a, 3-c	d) 1-c, 2-b, 3-a

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

3.1 *g‘oya, kashfiyot, iqtidor, zamonaviy, sirli, ilmiy* so‘zlarini ona tilingizga tarjima qiling; (15 ball)

3.2 Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning (*ko ‘p*) ma’nodoshlarini yozing. (15ball)

## IX VARIANT

Sun’iy intellekt: foydalimi yoki zararli?

Sun’iy intellekt haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Ba’zilar ularning ommalashib odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Ba’zilar esa sun’iy intellektga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirishmoqda.

**Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralari, haydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.** Hatto politsiya xodimlarining ba’zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko‘rinishini imkon qadar odamlarnikiga o‘xshatishga urinishmoqda. Shu sababli ko‘pchilik o‘z ish joylarini yo‘qotishi mumkin. Ishsizlik g‘aznachilar, pochta xodimlari, hisobchilar va idora xizmatchilariga xavf solishi mumkinligi aytilgan. Sun’iy intellekt ularning vazifasini bemalol bajara oladi.

Har qancha e’tiroz va tanqidlarga qaramay sun’iy intellekt rivojlanishdan va odamlarga yordam berishdan to‘xtamayapti. Ayniqsa, tibbiyotda uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Endilikda robotlar nisbatan murakkab jarrohlik amaliyotlarini ham uddasidan chiqishyapti. Robot-shifokorlarning tibbiyot xodimlari bilan o‘ziga xos hamkorligi samaradorlikni ancha oshirdi.

Sun’iy intellektning “mehnat” qiymati juda past bo‘ladi, shuning uchun uni bepul yoki juda **arzon** narxlarda ishlatishimiz mumkin. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, ilg‘or sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish dunyo aholisining tez o‘sib borayotgan hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi va turli xizmatlar bir necha marotaba yaxshilanadi.

### **TOPSHIRIQLAR:**

1. Sun’iy intellekt nima? Siz sun’iy intellektni foydali deb hisoblaysizmi yoki zararli, nima uchun? Hayotingizning qaysi jabhalarida sun’iy intellektdan foydalanyapsiz? (30 ball)
2. 2.1 Matn asosida berilgan quyidagi hukmlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang (20 ball)

	Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.	Sun’iy intellektning ommalashishi ishsizlikning kamayishiga olib keladi		
2.	Dronlar ham sun’iy intellektning bir ko‘rinishidir		
3.	Yirik kompaniyalar sun’iy intellektdan foydalaniib katta foyda ko‘rishadi		
4.	Murakkab jarohlik amaliyotlarini faqat shifokorlar bajara oladi		

- a) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- to‘g‘ri
- b) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri, 4- to‘g‘ri
- c) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4- to‘g‘ri
- d) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri, 4-noto‘g‘ri

- 2.2 Matnning uchinchi xatboshisi haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang (20 ball)

- a) sun’iy intellektning zarali tomonlari haqida
- b) sun’iy intellektning tibbiyotdagi ahamiyati haqida
- c) sun’iy intellektning qiymati haqida
- d) ommaviy ishsizlikning ko‘payishi haqida

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaran:

- 3.1 *Ommaviy ishsizlik, qiymat, ilg‘or, ijobiy, ahamiyat, hayot sifati* kabi til birliklarini ona tilingizga tarjima qiling; (15 ball)
- 3.2 Ajratib ko‘rsatilgan so‘z (**arzon**)ning antonimini toping. (15 ball)

## X VARIANT

### Sato

“Sato” deb ataladigan cholg‘u asbobi haqida eshitganmisiz? Ba’zi manbalarda sato “setor”, ya’ni “uchta tor” so‘zidan kelib chiqadigan atama deyiladi. Boshqa manbalarda “sato” so‘zining ma’nosи “sado” so‘zi, ya’ni “dardning aks-sadosi” ma’nosи bilan teng deyiladi.

Sato qalbni titratadigan asbob bo‘lib, tanburning kamon bilan chalinadigan bir turidir.

Sato o‘zbek, tojik, uyg‘ur, afg‘on kabi Sharq xalqlarida keng tarqalgan. Kosasi tanburga nisbatan sal kattaroq va yupqaroq, qopqog‘i kengroq bo‘ladigan bu asbob **tut** yog‘ochidan o‘yib yasaladi. Umumiy uzunligi 110-120 sm.

Satoda, odatda, kuylar turli ohanglar bilan boyitib chalinadi. U hozir turli o‘zbek cholg‘u ansambllarida hamda yakkaxon ijroda qo‘llanadi.

### TOPSHIRIQLAR:

1. Satoning o‘ziga xos jihatlarini sanang. O‘zbek milliy cholg‘u asboblari va mumtoz kuylardan qaysilarini bilasiz? (30 ball)
  - a) Sato faqat yakkaxon ijroda qo‘llaniladigan musiqa asbobi
  - b) G‘arb xalqlari orasida juda keng tarqalgan
  - c) Sato cholg‘u asbobi o‘rik daraxti yog‘ochidan yasaladi
  - d) Sato atamasi “uchta tor” ma’nosini ham bildiradi
2. 2.1 Matn mazmunida aks etgan to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang (20 ball)
  - a) Sato faqat yakkaxon ijroda qo‘llaniladigan musiqa asbobi
  - b) G‘arb xalqlari orasida juda keng tarqalgan
  - c) Sato cholg‘u asbobi o‘rik daraxti yog‘ochidan yasaladi
  - d) Sato atamasi “uchta tor” ma’nosini ham bildiradi

#### 2.2 Moslashtiring (20 ball)

1	110-120 sm	a)	Tanbur
2	_____ nisbatan sal kattaroq va yupqaroq	b)	Umumiy uzunligi
3	_____ yog‘ochidan yasaladi	c)	Tut

- a) 1-c, 2-a, 3-b    b) 1-b, 2-a, 3-c    c) 1-a, 2-b, 3-c    d) 1-b, 2-c, 3-a

3. Quyidagi topshiriqlarni bajaring:

3.1 Oxirgi gapni ona tilingizga tarjima qiling (15 ball)

3.2 Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning (*tut*) leksik ma’nolarini izohlang. (15 ball)